

MUSTAQILLIK YILLARIDAO` ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDA OLIB  
BORILGAN ISLOHOTLAR

**G‘ulomjonova Odinaxon G‘ayratjon qizi**

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy hodim.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada istiqlol yillarida O`zbekistonda ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so`zlar:** "Ta'lim to`g`risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Umid" jamg`armasi, "Ustoz" jamg`armasi, "Ustoz" granti, "Yosh kitobxon" tanlovi, 5 ta muhim tashabbus, "Zakovat" intellektual o`yini, "Zakovat" stipendiyasi

Istiqlol yo`lida ildam odimlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma`naviy, madaniy omillarga ahamiyat berish bilan birga maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. "Ta'lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib, ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib esa, biz ko`zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo`lmaydi" degan edi O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Shu maqsadda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to`g`risida"gi 636-XII sonli qaror qabul qilindi.

1997-yil 29-avgustda respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A.Karimovning "Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori" ma'ruzasi asosida 463-I sonli qonuni bilan tasdiqlangan "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" va yangi tahrirda 34 moddadan iborat "Ta'lim to`g`risida"gi 464-I sonli qonun qabul qilindi.

1997-yil 5 yillik oliy ta'limdan 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlariga o'tildi.

1997-yil tashkil qilingan "Umid", "Ustoz" jamg`armalari ta'lim sohasining rivojida muhim o'rinni kasb etadi.

"Umid" jamg`armasining asosiy vazifasi iste'dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o`quv yurtlarida ta'lim oldirishdan iborat edi. "Umid" jamg`armasi sinovlarida 1997-1999-yillar mobaynida 5500 nafar yoshlar qatnashib, ulardan 658 tasi Prezident grantlariga sazovor bo`ldi. Ushbu yillar mobaynida 700 nafardan ortiqroq talaba yoshlar xorijga o`qishga jo`natildi. 2000-2001-o`quv yilida bu tanlovda 3000 nafar yoshlar bilimi sinovdan o`tkazilib, ulardan 124 nafari xorijiy davlatlarning eng nufuzli o`quv yurtlarida o`qishga muyassar bo`ldi.

"Ustoz" jamg`armasi ta'lim sohasini malakali professor va o`qituvchilar bilan ta'minlash borasida katta hissa qo`shmoqda. Jamg`armaning chet ellardagi yetakchi o`quv yurtlarida o`qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirgan tadbirlari natijasida 1998-yilda 71 nafar pedagog xodimlar xorijda malakasini oshirgan, 980 nafari O`zbekistonning o`zida chet elliq mutaxassislar ishtirokida malakasini oshirgan. "Ustoz" grantiga sazovor bo`lgan 185 kishi AQSH va Isroil davlatlarida malaka oshirib keldilar.

Ta'lim sohasidagi bugungi kunlarda amalga oshirilayotgan ishlar mazkur tizimning samaradorligini oshirish,kelajakda mamlakatni yuksak malakali mutaxassislar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Bolalar va yoshlar o`rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish,ularning intellektual salohiyati va ma'naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida 2019-yilda "Yosh kitobxon" tanlovi tashkil etildi, Ushbu tanlov har yili o'tkazib kelinadi. G`oliblar "Spark" avtomobili va 30 million so`mgacha bo`lgan pul mukofotlarini qo`lga kiritishlari mumkin.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yilda ijtimoiy,ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo`lga qo'yish bo'yicha ilgari surgan "5 ta muhim tashabbus" ning 4-yo`nalishi yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish,ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan edi.

2001-yildan buyon teleo`yin sifatida faoliyat olib borayotgan "Zakovat" intellektual o`yinini aholi o`rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o`yinlarni rivojlantirish bo'yicha respublika tashkiliy qo`mitasi tashkil qilindi. Intellektual o`yinlarning respublika bosqichida g`olib bo`lgan o`quvchi yoshlar va talaba yoshlar uchun yil davomida har oyda beriladigan "Zakovat" stipendiyasi ta'sis etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz ilm-fan va taraqqiyotda tobora rivojlanib,dunyo miqyosidagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga asta-sekinlik bilan kirib bormoqdamiz. Bizni yuqori natijalarga erishtiruvchi bunday sa'y-harakatlar da avvalo, davlat rahbari, iste'dodli va shijoatkor yoshlarning o`rni beqiyosdir. Yurtboshimiz,ota-onamiz bizni har jahbada qo`llab-quvvatlab,ishonch bildirishmoqda va zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlamoqda. Albatta,bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz, Vatanimiz taraqqiyoti,ravnaqi taraqqiyoti uchun o`z hissamizni qo`shmog`imiz lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, 3-renessansni biz yoshlar qurmog`imiz darkor. Zero, ajdodlarimiz, jadid bobolarimiz bugungi tinch zamon, farovon hayot uchun kurashgan va shu yo`lda jon bergenlar. Ularning abadiy xotirasi, chekkan zahmat-u mashaqqatlari hurmati uchun, Vatan ravnaqi uchun, farovon kelajak uchun sidqidildan harakat qilmog`imiz, o`qib-o`rganmog`imiz biz yoshlarning asosiy burchimizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. 1-jild. – T.: O`zbekiston NMIU,2017.
2. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. –T.: O`zbekiston,1992.
3. Mustaqillik : Izohli ilmiy-ommabop lug`at M.Abdullayeva va boshqalar: to`ldirilgan uchinchi nash. – T.: Sharq,2006.
4. Mustaqil O`zbekiston tarixi.A.Sabirov. -T.:Akademiya,2013.
5. O`zbekiston tarixi G` R.H.Murtazayeva umumiy tahriri ostida. –T.: Yangi asr avlod,2005.
6. O`zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. Mas'ul muharrir i.f.n.N.Talipova G` - T.: Fan va texnologiya,2014.